



O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV O'QITISH USULLARI VA METODLARI

Salomova Gulbegim Rauf qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Zubaydova Nilufar

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Chet tilini o'rganish davomida har bir o'rganuvchi ko'plab muammolarga duch keladi. Bulardan biri ko'pchilikda uchraydigan so'zlashish qobiliyatidagi muammolardir. Ushbu maqolada, chet tilida, ayniqsa, ingliz tilida so'zlashishni yaxshilashga yordam beradigan usullar va metodlar haqida aytib o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilarni dars davomida bir biri bilan muloqot qilishga undaydigan metodikalar ham aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ o'qitish usullari (CLT), "kommunikativ yondashuv", savol- javob metodi, debatlar metodi, rol ijro etish metodi.*

Hozirgi kunda barcha ota onalar farzandlarini chet tilini yaxshi bilishini xohlaydi va bu albatta zamon talabi bo'lib bormoqda. Ammo chet tilini, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishda o'quvchilar ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Yangi tilda so'zlashish tilni endi o'rganayotganlar uchun muammoli holatlardan biridir. Chet tilida ravon gapira olish har bir kishi uchun juda ko'p imkoniyatlarni ochib beradi. Shu sababdan, o'quvchilardagi so'zlashuv qobiliyatini oshirishda kommunikativ o'qitish metodikasi (CLT) dan foydalaniladi. Bu usul har bir o'quvchi uchun foydali bo'lib, ularga gapirishda duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga va erkin muloqotga kirishishga yordam beradi.

Tillarni o'rganishning ko'plab usullari mavjud. Ulardan biri kommunikativ yondashuvdir. Ommaboplik reytingida ushbu o'qitish usuli uzoq va ishonchli tarzda barcha boshqa usullar orasida birinchi o'rinlarni egallab kelgan. Kommunikativ usul, avvalo, jonli muloqot qo'rquvini yo'qotish uchun kerak. Ingliz tilini o'qitishning kommunikativ usuli maktabda, universitetda yoki asosiy kurslarda olingan tilning ba'zi leksik va grammatik bazalariga ega bo'lganlar uchun eng ma'qul degan fikr mavjud. Talabalar birinchi darsdanoq ingliz tilida gaplashadilar. Ingliz tilini o'qitishning kommunikativ texnologiyasi o'quvchilar birinchi darsdanoq ingliz tilida so'zlashadigan muhitga singib ketishini nazarda tutadi. Agar siz ingliz tilida qanday gaplashishni xayolingizga ham keltirmagan bo'lsangiz, unda birinchi darsdan so'ng siz bir nechta o'nlab iboralarni o'rganishingiz va ularni suhbatda qo'llashingiz mumkin bo'ladi.



“Kommunikativ yondashuv “- bu usulning yetakchi yo‘nalishi aloqa hisoblanadi. Talabalar o‘zlarining til qobiliyatlari va ko‘nikmalarini haqiqiy chet tillari bilan aloqa qilish sharoitlarida qo‘llaydilar. Bunday imkoniyatlar tufayli o‘quvchilar oldinroq olingan bilim va ko‘nikmalardan foydalangan holda o‘z fikrlarini chet tilida erkin bayon qilishlari mumkin (Савина, 2017:45). O‘quvchilar real vaziyatdagi muloqotga jalb qilinganda, ularning tilni o‘zlashtirish bo‘yicha tabiiy strategiyalaridan foydalaniladi va bu ularga tildan foydalanishni o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushuntirish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir. Kommunikativ yondashuv kommunikativ tilni o‘rgatish deb ham yuritiladi.

Shuningdek, tilni kommunikativ o‘qitish (CLT) da bir nechta metodlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar

“Savol-javob” metodi ishlatilganda talabalar qiziqish bilan ishga kirishib, har bir talaba mavzu yuzasidan savollarga o‘z fikrini bildirish orqali javob berishdi. Bu vazifani bajarishda barcha faol ishtirok etishga va har bir ishtirokchi o‘z guruhining g‘olib chiqishiga bor kuchini sarflaydi. Natijada mashg‘ulot davomida har bir talaba ishtirok etishga harakat qiladi. Xullas, kommunikativ o‘yinning asosiy maqsadi bo‘lgan talabalarni muloqot qilish ko‘nikmalarini hosil qilishga erishiladi. Ikkinchi kommunikativ o‘yin – “Debatlar” murakkabroq metod bo‘lib, talabalardan nafaqat muloqot qilish, balki berilgan mavzu ustida muzokara va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham chorlaydi. Ushbu metodda ishtirokchilar uchun bahsda asosli ravishda g‘olib chiqish qo‘shimcha motivatsiya bo‘ladi. Nutqlarining ta‘sirchanligini orttirish va dalillarini kuchaytirish uchun talabalar haqiqiy hayotiy misollarni keltirishdi. Bu esa til ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usulidir. Bu metodning yana bir muhim jihati shundaki, bu metod ishlatilganda talabalar o‘z nuqtai nazarini mustaqil, omma oldida ifoda etish tajribasiga ega bo‘ladilar. Oxirgi qo‘llanilgan metod “Rol ijro etish” o‘yini bo‘lib, unda talabalardan real hayotda kuzatish mumkin bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalab berish talab etilgan bo‘ladi. Bu metod talabalar uchun eng qiziqarli bo‘lib, ishtirokchilarning diqqatini o‘ziga to‘liq jalb etadi. Tajribadan ma‘lum bo‘lganidek, artistik qobiliyat talab qilinganda talabalarning o‘rganishga bo‘lgan istaklari ancha oshadi. Muloqotning ancha qiziqarli o‘tishi uchun dolzarb bo‘lgan masala olinishi kerak. Zerikarli mavzular tanlanganda ishtirokchilarning faollik darajasi keskin pasayadi. Eksperimental dars davomida qo‘llanilgan mavzu barchada qiziqish uyg‘otganligi yaqqol namoyon bo‘lib turadi.



Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda so‘zlashish qobiliyatini oshirishda bir nechta metodlar qo‘llaniladi. Albatta, bu metodlar ulardagi muammoli vaziyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Asosan, hayajonlanish , so‘z boyligining yetishmasligi va grammatik jihatdan xato qilishdan qo‘rqish o‘quvchini gapirishdan to‘xtashiga majbur qiladi. Va bunga yechim sifatida bir nechta metodlar berib o‘tildi. Agar o‘quvchida so‘z boyligi yetarli bo‘lsa va grammatikani yaxshi o‘rgangan bo‘lsa, ko‘p native speakerlar bilan gaplashsa unda so‘zlashishda muammolar qolmaydi va erkin muloqot qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-bu-v458.html?page=4>
2. <https://fayllar.org/kommunikativ-oqitish-usuli-nima.html>
3. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/7294?articlesBySameAuthorPage=2>